

MOLIYAVIY MENEJMENT VOSITALARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,
iqtisod fanlari doktori professor*

Abduraimov Toxir Abdurazakovich

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
tinglochisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy menejmentning asosiy vositalari va ularning tashkilotlardagi samaradorlikka ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Moliyaviy tahlil, byudjetlashtirish, pul oqimlarini boshqarish, investitsion loyihalarni baholash kabi vositalarning natijador faoliyat ko'rsatishdagi o'rni tadqiq etiladi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro tajribalar orqali moliyaviy menejment vositalarining qo'llanilishi misollar bilan yoritiladi. Maqolada muassasalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va xatarlarni boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy menejment, byudjetlashtirish, moliyaviy tahlil, investitsiya, pul oqimlari, samaradorlik, barqarorlik

Abstract. This article analyzes the main tools of financial management and their impact on organizational efficiency. It explores the role of financial analysis, budgeting, cash flow management, and investment project evaluation in ensuring effective financial performance. Through local and international practices, the study highlights the application of these tools. The article also provides practical recommendations on ensuring financial stability, efficient resource utilization, and risk management within institutions.

Keywords: Financial management, budgeting, financial analysis, investment, cash flows, efficiency, sustainability.

Moliyaviy menejment – bu korxona yoki tashkilotning moliyaviy resurslarini boshqarish tizimidir. U moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiyalarni boshqarish, daromad va xarajatlar nisbatini tahlil qilish hamda moliyaviy risklarni kamaytirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu mavzu bugungi

kundagi iqtisodiy islohotlar va bozor sharoitida tashkilotlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasbetadi.

Moliyaviy menejmentni o'rganishda olimlar tomonidan turli xil ta'riflar va qarashlar mavjuddir. A.D. Sheremet, A.F. Ionovalarning fikricha, moliyaviy menejment bu – pul aylanmasini, Aksiyadorlik jamiyatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanishni boshqarish jarayonidir. A.N Gavrilovaning aytishicha, moliyaviy menejment bu – tijorat Aksiyadorlik jamiyati moliyasini boshqarish tizimi bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruvning yangi tamoyillari, shakllari, strukturalari va usullarini doimiy joriy qilish yo'li bilan moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish va rivojlantirishga yo'naltiriladi. Y.I. Shoxina moliyaviy menejment- bu pul fondlari va aksiyadorlik jamiyatning moliyaviy mablag'larini samarali boshqarish orqali o'z oldiga quygan strategik maqsadlarni va taktik masalalarni yechishni o'rganadigan fandir deb tarif beradi. S.V. Galiskaya talqinida moliyaviy menejment-bu korxonalar aktivlarini va ularni shakllantirish manbalarini boshqarish deb ta'riflanadi. Moliyaviy menejment mazmuni uning mohiyatidan ancha keng tushuncha hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida qiymat qonuni tartibga soluvchi rol o'ynaydi va moliyaviy munosabatlar aksiyadorlik jamiyatlarida butun ishlab chiqarish jarayonini, jumladan, barcha iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Shu sababli moliyaviy boshqaruv aksiyadorlik jamiyatini boshqarish umumiyligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Moliyaviy menejment aksiyadorlik jamiyati umumiyligining boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi va u, o'z navbatida, moliyaviy resurslar harakati va harakat davomida vujudga keladigan moliyaviy resurslarni shakllantirishni o'z ichiga oladigan aksiyadorlik jamiyatlari xo'jalik faoliyatini moliyalashtirish jarayonini oqilona boshqarish tizimini ifodalaydi. Bundan kelib chiqib, moliyaviy menejmentni kapitaldan oqilona va samarali foydalanish tizimi sifatida, kapital hajmini oshirish, investisiyalar o'sishi va moliyaviy resurslar o'sishiga yo'naltirigan moliyaviy resurslar harakatini boshqarish mexanizmi sifatida tavsiflash mumkin. Moliyaviy menejment ularning samaradorligi aylanib turish tezligi (muomala tezligi) bilan tavsiflanadigan moliyaviy resurslarning normal muomala jarayonini qo'llabquvvatlashga yo'naltiriladi.

Moliyaviy boshqaruv – foydani maksimallashtirish bir vaqtning o'zida butun boshqaruv tizimining, jumladan, texnik-ishlab chiqarish boshqaruvining maqsadi hisoblanadi. Moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoni, har qanday

boshqaruv qarorlari qabul qilish kabi, uchta bosqichan iborat bo‘ladi. Qarorlarning har bir turi o‘ziga xos axborot va tahliliy ta’minotni talab qiladi. Bashorat va reja qarorlari istiqbolli, trend tahlili usullarini qo‘llagan holda qator yillar yoki choraklar uchun umumlashtirilgan buxgalteriya hisobotiga asoslanadi. Xo‘jalik faoliyatining borishini tartibga soluvchi qarorlar tezkor tahlil usullarini qo‘llagan holda tezkor, jumladan, buxgalteriya axborotiga asoslanadi. Baholash va nazorat qarorlari retrospektiv, joriy tahlil usullarini qo‘llab, joriy hisobot davri bo‘yicha amaldagi va reja (bashorat) ma’lumotlarini taqqoslashga asoslanadi.

Moliyaviy menejmentning asosiy tushunchalari kapital, pul oqimlari va moliyaviy qarorlar turlarini o‘z ichiga oladi. Kapital – bu korxona faoliyati uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mablag‘lardir. Pul oqimlari – bu kirim va chiqimlarning vaqt bo‘yicha harakatidir. Moliyaviy qarorlar investitsion, moliyalashtirish va dividend siyosatini qamrab oladi.

Moliyaviy menejmentda quyidagi asosiy vositalar keng qo‘llaniladi:

- Byudjetlashtirish: moliyaviy rejalarни tuzish va ularni nazorat qilish;
- Moliyaviy tahlil: asosiy ko‘rsatkichlar – rentabellik, likvidlilik, solvency, aylanish tezligi;
- Noldan daromadlilik nuqtasi: foyda va zarar tahlili;
- Investitsion loyihalarni baholash: NPV, IRR, PI, DPayback kabi indikatorlar orqali;
- Risklarni boshqarish: moliyaviy va operatsion risklar uchun chora-tadbirlar;
- Pul oqimlarini boshqarish: kirim va chiqimlar oqimini boshqarish strategiyalari.

Moliyaviy menejment vositalarining to‘g‘ri qo‘llanilishi korxona resurslaridan oqilona foydalanishga imkon yaratadi. Bu orqali moliyaviy barqarorlik ta’minlanadi, daromadlilik oshadi, moliyaviy xatolar kamayadi. Bularning barchasi tashkilotning umumiy samaradorligini oshiradi.

Amaliyotda mahalliy va xorijiy korxonalar moliyaviy menejment vositalarini turlicha qo‘llaydi. Masalan, O‘zbekiston korxonalarida byudjetlashtirish va moliyaviy nazorat asosiy vosita bo‘lsa, yirik xalqaro kompaniyalarda risklarni bashorat qilish va cash flow modellar ustuvor hisoblanadi.

Xulosa: Moliyaviy menejment vositalari tashkilotlarning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishida muhim rol o‘ynaydi. Ularning to‘g‘ri tanlanishi va samarali qo‘llanilishi orqali tashkilot moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lishi mumkin. Tavsiya etiladi: tashkilotlar moliyaviy tahlil va risklarni baholash

vositalarini keng qo'llashi, investitsion qarorlarni qabul qilishda NPV va IRR metodlariga tayansin, shuningdek, pul oqimlarini to'g'ri boshqarsin.

REFERENCES

1. Suyunov D. X. Corporate governance mechanism: problems and solutions. Monograph// T.: Academia. – 2007. - T. 200.
2. Suyunov, D., and Elmurod Abdusattorovich Khoshimov. "Methodological aspects of assessing the effectiveness of corporate governance in joint-stock companies. Scientific electronic journal" Economics and innovation technologies " 2 (2018).
3. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – S. 2321-6247.
4. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS), Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No 09. September 2023 ISSN:2660-5570.
5. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga ilmiy qarashlar. Iqtisodiy tarqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali, 2024 yil 31 iyul.<https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/1472/1379>.
6. Suyunova D.D. Raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirish masalasiga ilmiy yondashuv.(Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2022 yil 23 dekabr.)
7. Suyunova D.D. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy qilishning raqamli transformatsiyasini amalga oshirishga ilmiy-nazariy yondashuv. (Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirvorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2022 yil 23 dekabr).
8. D.Kh Suyunov, T.D. Shermonovna The role and importance of digital technologies in the development of enterprises. The American Journal of Social Science and Education Innovations 4 (02), 15-19.2022.

9. D.X.Suyunov, E.A.Xoshimov Korporativ boshqaruv modellari: konseptual jihatlari, zamonaviy tendensiyalar va konvergensiya imkoniyatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali 4, 12-17, 2017.
10. D.X. Suyunov, E.A. Xoshimov, Sh.A. Xusainov Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. 2018. 220 bet.
11. D.X. Suyunov, B.A. Xolbaev Loyiha boshqaruvi: uslub va standartlar. O‘quv qo‘llanma. 2018 yil. 195 bet.
12. Suyunov.D.X. Xolbaev.B.A. Metody i standarty upravleniya proektami. uchebnoe.2018 god. 210 str.
13. D.Kh. Suyunov, A.T.Kenjabaev Scientific Approaches to The Analysis of the Experience of Foreign Countries on the Development of Entrepreneurship in The Service Field. Wire Insights: Journal of Innovation Insights 1 (5), 1-7. 2023.